

## O'ZBEKISTONDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARI OCHILMOQDA VA "YOPILMOQDA", YANGI VAZIRGA ESKI SAVOLLAR

*Oripov Sirojiddin Salimjon o'g'li*

*Harbiy xizmatchi*

*Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi*

*FarDU, Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif tizimida bo'layotgan o'zgarishlar, nodavlat oliy ta'lif muassasalari faoliyati va ularning ommaviy tarzda yopilishi, litsensiyalash tartibidagi o'zgarishlar, yopilgan nodavlat oliy ta'lif muassasalari talabalari taqdiri nima bo'ladi? degan savallarga javob topamiz.

**Kalit so'zlar:** "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun, davlat va nodavlat oliy ta'lif muassasalari, litsenziya berish tartibi, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lif tizimida ham bir qator yuksalishlar kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi. Bundan tashqari konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lif sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lif platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan.

So'nggi yillarda ta'lif jarayonlarini tashkil etish va yurtimizning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha yaratilgan qulay shart-sharoitlar sababli mamlakatimizda nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari soni ortib bormoqda.

Ularning sonini oshib borishi bilan savollar ham ko'p uchramoqda, xususan, nodavlat oliy ta'lif muassasasi diplomi Respublikamiz hudududa tan olinadimi?

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuning 31-moddasida: Davlat ta'lif standartlari va davlat ta'lif talablariga muvofiq ta'lif xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lif tashkilotlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lif to'g'risidagi hujjatlari berilishi;

mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari bo'yicha ta'lif xizmatlari ko'rsatadigan nodavlat ta'lif tashkilotlari bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lif to'g'risidagi hujjatlarni berilishi belgilangan.

So‘nggi 2-3 yil ichida nodavlat oliy ta’lim muassasasining ko‘payib borishi bilan birga ularga litsenziya berish va uni bekor qilish masalasida muammolar yuzaga chiqyapti. Masalan, 2023 yilning 6 noyabr holatiga ko‘ra, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi nodavlat oliy ta’lim muassasalarida tekshiruv o‘tkazib, kamchiliklar aniqlab, 5 ta nodavlat oliy ta’lim muassasalarini litsenziyasini bekor qilish bo‘yicha sudga ariza kiritgan.

Nodavlat oliy ta’lim muassasasini litsenziyalash 2023 yil yanvarigacha Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilgan. Lekin 2023 yil dekabr oyidagi ma’muriy o‘zgarishlar sabab bu inspeksiya tugatilib, uning vazifalari ikkita vazirlikka o‘tkazildi. Xususiy bog‘chalar va maktablarga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, xususiy professional ta’lim muassasalarini va oliy o‘quv yurtlariga Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi litsenziya beradigan bo‘ldi.

Litsenziyalash hukumat qarori bilan tasdiqlangan “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi yagona nizom asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida ham nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash shartlari ko‘rsatilgan.

Lisenziyani bekor qilish yoki uni to‘xtatib turish talabi qanchalik asosli ekani alohida mavzu, bunga sud baho beradi. Ammo bu yerda bir masala mavhum bo‘lib qolmoqda: nodavlat oliy ta’lim muassasasi litsenziyasi bekor qilinsa, unda o‘qib yurgan talabalar taqdiri nima bo‘ladi?

2023 yil 3 iyulda imzolangan, “Ma’muriy islohotlar doirasida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori(PQ–200-son, 03.07.2023-y.)ga ko‘ra, litsenziyasi bekor qilingan ta’lim tashkiloti yoki yopilgan ta’lim dasturida tahsil olayotgan talabalarga o‘qishini davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarining mos va turdosh ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko‘chirish huquqi beriladi.

“Yosh ziyokor” nodavlat ta’lim tashkilotlari uyushmasi raisi Rasul Kusherbayev shunday deydi “Vakolatli organ nodavlat OTMga lisenziya beryapti. Va davlat oliy ta’lim tashkilotlari haq-huquqini himoya qilish bilan ham shug‘ullanyapti. Mana shu jarayonlarda vazirlik xususiy ta’lim tashkilotlariga begona ko‘z bilan qarash tendensiyasi kuzatilyapti. Ya’ni xususiy ta’lim tashkilotlari davlat OTM bilan raqobat qila olib, kerak bo‘lsa, yaxshi narx taklif qilib, u yerdagi eng yaxshi kadrlarni o‘ziga chaqirib olyapti. Nodavlat OTMdagi sharoit, dars sifatidan ko‘plab odamlar rozi ham bo‘lyapti” – “Oliy ta’lim vazirligi davlat OTMlari himoyachisi, shu bilan birga nodavlat OTMlar nazoratchisi bo‘lib qolmoqda”.

Uyushma raisi, shu o‘rinda nega aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun nodavlat OTMlarga vaqt va imkoniyat berilmagan, nega litsenziyasini darrov olib

qo‘yish kerak bo‘lyapti, u yerdagi tadbirkor, talaba, xodim oilasini “Kim o‘ylaydi?” degan savollarini ham o‘rtaga tashladi.

Ma’lumot uchun, 2023 yil iyul holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 210 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ularning 115 tasi davlat, 65 tasi nodavlat va 30 tasi xorijiy xususiy oliy ta’lim muassasasi yoki ularning (filiallari) hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil fevral oyida ta’lim sohasini isloh qilish bo‘yicha sellektor yeg‘ilishi o‘tkazildi. Unda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga qattiq e’tiroz bildirildi va quyidagi kamchiliklar ta’kidlandi:

“Professional ta’lim uchun mas’ul idoralar ko‘payib ketgani uchun tizim rivojlanmayapti. Ish beruvchilar va texnikumlar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur.

Oliy ta’limda qamrov keskin oshdi, sohaga xususiy sektor kirib keldi. Lekin sifatga yetarli e’tibor qaratilmayapti.

Masalan, talabalarining mustaqil ishlashi uchun muhit barcha oliygochlarda ham birdek namunali tashkil etilmagan. Aksariyat kollej va texnikumlar ham, oliygochlар ham ish beruvchilar talabi bilan hisoblashmaydi. Ayrimlarida darslik va adabiyotlar yetishmaydi, bori ham bugungi talablarga javob bermaydi”, deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Davlat rahbariga ko‘ra, ilm-fan va innovatsiyalarga yetti yilda 6 trln so‘mdan ziyod mablag‘ ajratilgan. Lekin ilm-fanda “xarajat – tadqiqot – mahsulot” degan formula ishlamayapti.

Qayd etilishicha, ayrim rektorlarda tashabbus, intilish, fidoyilik yetishmayapti. Shu bois, tegishli farmoni bilan Kongratbay Avezimbetovich Sharipov O‘zbekiston oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri lavozimiga tasdiqlandi. Yangi vazir oldiga professional va oliy ta’limda keskin o‘zgarish qilish vazifasi qo‘yildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.07.2023 yildagi PQ-200-sonMA’MURIY ISLOHOTLAR DOIRASIDA OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVINI SAMARALI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA
2. „OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI NEGIZIDA OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TASHKIL ETILMOQDA“. www.sifatli.uz. SIFAT.UZ. 2023-yil 17-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 17-iyun 2023-yil.
3. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)
4. [@nodavlat@tadqiqotlar.uz](mailto:@nodavlat@tadqiqotlar.uz) — nodavlat oliy ta’lim muassasalari
5. <http://uz.wikipedia.org/wiki>